

## GNOSELOGIYA – MOHIYATI, VAZIFALARI VA ASOSIY TAMOYILLARI

To‘ychiyeva Fotima Asqarali qizi

Toshkent davlat tibbiyot universiti stomatologiya yo‘nalishi talabasi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada gnoseologiyaning qonuniyatlari, imkoniyatlari va shuningdek bilimning obyektiv haqiqatga munosabati yoritilgan. Shuni ham aytish kerakki inson tabiat jamiyat va o‘zini qanday bilishini hamda bilimni hosil qilish jarayonini taxlil qilamiz. Shuningdek Sharq va g‘arb mutafakkirlarining gnoseologik qarashlari ham solishtirma tahlil asosida ko‘rb chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** bilish nazariyasi, ratsinal bilish, emorik bilish, nazariy bilish, ratsionalizm, empirizm, haqiqat, aql va tajriba.

**Аннотация.** В данной статье освещаются законы и возможности гносеологии, а также отношение знания к объективной истине. Следует также отметить, что рассматривается, как человек познаёт природу, общество и себя, а также анализируется процесс формирования знания. Кроме того, гносеологические взгляды восточных и западных мыслителей рассматриваются на основе сравнительного анализа.

**Ключевые слова:** теория познания, рациональное познание, эмпирическое познание, теоретическое познание, рационализм, эмпиризм, истина, разум и опыт.

**Annotation.** This article explores the laws and possibilities of gnoseology, as well as the relationship of knowledge to objective reality. It should also be noted that we analyze how humans perceive nature, society, and themselves, as well as the process of acquiring knowledge. In addition, the gnoseological views of Eastern and Western thinkers are examined based on a comparative analysis.

**Key words:** theory of knowledge, rational knowledge, empirical knowledge, theoretical knowledge, rationalism, empiricism, truth, reason, and experience.

### KIRISH

Falsafaning eng muhim bo‘limlaridan biri bu - bilish nazariyasi ya‘ni gnoseologiya (yunoncha: gnosis - “bilim”, logos - “ta’limot”). Bu ta’limot insonning dunyoni qanday bilishi, bilimning kelib chiqishi, uning imkoniyatlari va chegaralari haqida fundamental savollarga javob izlaydi. Insoniyat taraqqiyoti davomida ilm-fan rivoji, texnologiyalar, madaniyat va jamiyatning yutuqlari - barchasini bilish jarayonibilan chambarchas bog‘liq. Bilish tirik kishilar ya‘ni odamlar tomonidan amalga oshiriladi, shu sababli bilish emotsional elementlarni - iroda niyat istaklarni o‘z ichiga oladi. Shu munosabat bilan aytish joizki, narsalar, atrofdagi voqeylik hodisalari subyektning nazariga tushgan, nimasi bilandir uning diqqatini tortgan, u bilan o‘zaro aloqada bo‘logan jarayonlardan ajratib olingan taqdirdagina bilish obyektiga ayplanadi.

### MUHOKAMA

Bilish nazariyasi qadimdan falsafaning markazida bo‘lgan. Qadimgi yunon faylasuflari Suqrot, Platon, Aristotel inson aqli va bilishning mohiyatini tushuntirishga

urinib, bilimning manbai haqida turli qarashlarni ilgari surishgan. **Platon** ruhiy xotirada mavjud bo‘lgan narsalarni eslash deb bilgan bo‘lsa, **Aristotel** esa bilim tajribadan boshlanishini ta’kidlagan. Keyinchalik yangi davr falsafasi - eprizm va ratsionalizm shaklida qarash rivoj topdi. Sharq falsafasida ham bilish chuqur o‘rganilgan. Al-Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Al-G‘azzoliy kabi allomalar bilishning manbai sifatida aql va tajribaning uyg‘unligini ilgari surganlar. Al-Farobiyning fikricha, “Bilim insonni barkamol qiladi”, Ibn Sino esa bilishni “sezgi va tafakkurning uyg‘un faoliyati” sifatida ta’riflagan.

Insonning bilish foliyati murakkab, ammo izchil jarayondir. U sharti ravishda ikki bosqichga bo‘linadi:

## NATIJALAR

Ushbu o‘rganishlar davomida bilish jarayoning falsafiy mohiyati, uning shakllanish bosqichlari hamda bilishning subyekt va obyekt tizimidagi o‘rni yanada to‘liq aniqlandi.

**1. Emprik (hissiy) bilish** - sezgi, idrok, tassavur orqali narsalarning tashqi xususiyatlarini bilish jarayonidir. Bu bosqichda inson dunyoni bevosita tajriba orqali o‘rganadi. **Sezgi** hissiy bilishning eng oddiy shakli, obyektivlik va subyektivlikning qorishmasdir. Sezgi manbai jihatidan obyektiv va u yoki bu sezgi a’zolarining tuzilishiga bog‘liq holda shakli jihatidan subyektivdir. Sezgi subyektga tekshirilayotgan obyektning ayrim tomonlarini yoki xossalarini bilishga yordam beradi, ammo o‘zining tabiiy cheklanganligi sababli obyektни yaxlit holda bilishga imkon bermaydi. Shuning uchun bilish sezishdan idrok qilish tomonga boradi. **Idrok** - bu bir sezgi emas, u turli xil sezgilarning jamul -jamligi, kombinatsiyasidir. Biz idrok qilish orqali predmetning ayrim tomonlarini emas, balki uni yaxlit hojda aks ettiramiz. Masalan: sharsimon, yashil-qizil, xushbo‘y shirin, nordon, suvli his qilishlar birgalikda olma obrazida assosiasiyalashadi. Hissiy bilishning idrokdan keyingi bosqichi tasavurdir. U sezishdan ham, idrok qilishdan ham sifat jihatidan faq qiladi. **Tasavvur** - bu hissiy idrok bilan tushuncha o‘rtasidagi oraliq bosqichdir. Tassavur subyek bilan obyektning bevosita o‘zaro tasiri bo‘ib chiqmaydi. Bunga umumiy misol qilib biz somsani misol keltirsak bo‘ladi. Biz somsani issiqligini, qizarib pishganini, qatqatligini va hushbo‘y hidini sezgi organlarimiz orqali sezishimiz bu sezgi, keyin esa uni go’shtli yoki karoshkali somsa ekanini bilishimiz bu idrok va somsani yeb tugatdik yoki u oldimizda yo‘q lekin biz uning hushbo‘y hidini, ustidagi kunjutlari yoki qizarib pishgan hamirini ko‘z oldimizga keltirishimiz bu tassavur qilishimizdir.

**2. Hissiy bilishdan keyingi bosqichimiz rotsional (aqliy) bilish.** Agar biz sezgilar vositasida hodisalar olamini aks ettirsak, sezgi bilan idrok etib bo‘lmaydigan narsalarni aql orqali tushunib yetamiz. Aql bizning sezgi azolarimiz tashqi olamdan olgan

malumotlarimizga asoslanadi va u hodisalar mohiyatini yashiruvchi holatlardan xalos qiladi ya'ni muhim bo'lmagan aloqalardan xalos qiladi. Muhimni nomuhimdan ajrata olmaydigan sezgilardan farqli o'laroq, aql hodisalaridan hamma narsani emas, balki eng muhimini yani qonuniyatlisini oladi.

Ratsional, abstrakt-mantiqiy tafakkur hodisalar olaminig qonuniyatlarini bilishga imkon beradi, bu esa insonga tashqi dunyoni bermalol tushunib olish va tevarak-atrofdagi voqea va jarayonlardan o'z manfaatlari yo'lida foydalanish uchun zarurdir. Aqliy bilishni biz 3 ga bo'lib o'rganamiz ya'ni tushuncha, hukm, aqliy xulosa. **Tushuncha** - bu tajribalar natijasida olingan ma'lumotlarni umumlashtirish natijasidir. Tushunchalarning paydo bo'lish jarayoni o'rganilayotgan narsaning bir qator ikkinchi darajali alomatlarini va xususiyatlarini hisobga olmaslik, chalg'ish, abstraktlashish. Masalan: fil desak hayvonni, tol desak daraxtni yoki somsa desak taomni ekanligini bilishimiz bu - tushunchadir. Demak bizda bu narsalar haqida tushuncha bor ya'ni ularni nima ekanligini bilamiz. Tushunchalarning paydo bo'lishi - bu biluvchi inson ongining oliy maxsulidir. Bilish jarayonida tushunchalarni ifodalabgina qolmasdan, ulani qo'llay olish ham kerak. Tushunchalarni qo'shib biz hukmni shaklantiramiz.

**Hukm** tafakkurning shunday shakli, bu biror bir narsani tasdiqlash yoki inkor etish yo'li bilan voqeylikni aks ettirish shaklidir. Shu boisdan hukm tasdiqlovchi va inkor etuvchi hillarga bo'linadi. Tasdiqlovchiga misol "bugun ishga boryaman" va inkor etuvchiga misol "ertaga ishga chiqmayman". Agar biz bundan ham ko'proq hukumlarni bir-biriga taqqoslasak ular orqali aqliy xulosa chiqarishimiz mumkin.

**Aqliy xulosaning** mantiqiy natijasi to'g'ri bo'lishi uchun bizga ikki shart zarur. Birinchisi: mantiq ilmidan asoslar haqiqiy bo'lmog'ilk ya'ni voqeylikka mos kelmog'i zarur. Ikkinchisi: boshlang'ich asoslarda aqliy xulosa chiqarish mantiq ilmining qonunlariga muvofiq bo'lishi lozim.

Bilishning bosh vazifasi haqiqatni izlash. Haqiqat masalasi butun bilish nazariyasining eng muhim vazifasi. Faylasuflar orasida haqiqat va uning ro'li haqida malumotlar aytib o'tilmagan. Haqiqatga hamma har xil qaraydi. Masalan: nimadur insonlar uchun foydali bo'lsa bu haqiqat yoki dunyoning odamlar ongida to'g'ri shakllanishi bu ham qaysidir manoda haqiqat. Lekin bizda muhokama qilinmaydigan haqiqatlar ham bor bu allohning yagonaligiga ishonish va unga iymon keltirish, shunigdek nargi dunyoning borligi bu inkor etib bo'lmaydigan haqiqatdir. Aristotel haqiqatning "klassik" konsepsiyasi muallifidir. U o'zining "Metafizika" asarida bunday deb yozadi: "Bor narsani yo'q deyish yoki yo'q narsani bor deyish" bu yolg'on gapirishdir "Borni bor yoki yo'qni yo'q deyish bu haqiqatni gapirishdir". Absalyut haqiqat - bilish

obyekti haqida inkor etib bo‘lmaydiga, to‘liq va tugal haqiqatdir. Nisbiy haqiqat esa - bilish predmeti to‘g‘risida noto‘liq ya’ni tugallanmagan haqiqatdir.

Dunyoni bilish - bu nazariy va amaliy jarayondir. Amaliyot hamisha ijtimoiy harakterda bo‘ladi, kishilar o‘rtasida aloqa va munosabatalarsiz amaliyot bo‘lishi mumkin emas. Amaliyot tarixiydir, u qurshab turgan tabiatni, insonning o‘zini, kishilarning turmush sharoitini o‘zgarishidan iborat. Amaliy bilim nazariy bilimdan yuqori turadi. Amaliyotdan ajralgan bilish bo‘lishi mumkin emas. Faqatgina amaliyotda nazariy bilimlar to‘ldiriladi va nazariy bilimning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi aniqlanadi. Bilish va amaliyot bir-biridan ajralmaydi. Amaliyot bilish haqiqatligining asosiy nuqtasi hisoblanadi.

**Ilmiy bilish** faktga, dalilarga, ulani qayta ishlash, va umumlashtirishga asoslanadi. Ilmiy fakt va dalillar to‘plashning o‘ziga xos usullari mavjud, ularni ilmiy bilish metodlari deyiladi. Ilmiy bilish metodlarini o‘rganadigan soha - metodologiya deb yuritiladi. Ilmiy bilish metodlari va ilmiy nazariya bir-biriga uzviy bog‘liq. Ilg‘or ilmiy nazariya fanning butun taraqqiyoti davomida erishilgan muhim yutuq bo‘lib, u ilgari ilmiy qarashlarni rivojantirish orqali vujudga keladi.

## **XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki bilish nazariyasi insonning olamni anglash jarayonini ilmiy falsafiy jihatdan o‘rganadi. U insoniyat taraqqiyotining poydevori bo‘lib, bilimning manbalari shakllari, haqiqat mezonlari va inson dunyoni bilish imkoniyatlari haqida chuqur mulohazalar beradi. Gnoseologiya ilm-fan, texnologiya, jamiyat va madaniyat rivojiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Abdullayeva, M. Falsafa asoslari. — Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2019.
2. Xolmuhamedov, A. Gnoseologiya va bilish nazariyasi. — Toshkent: Fan, 2017.
3. G‘aniev, Z. Falsafaga kirish. — Toshkent: Universitet, 2020.
4. Nazarov, Q. Falsafa. Toshkent .2018.
5. Shermuxamedova N.A. Falsafa, Toshkent 2012.
6. To‘xtasinov, B. Epistemologiya: zamonaviy yondashuvlar. — Toshkent: Akademiya, 2017.
7. Karimov, I. Falsafa: asosiy tushunchalar va yo‘nalishlar. — Toshkent: Sharq, 2018.
8. Platon. Faylasuflik dialoglari. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014.
9. Aristotel. Metafizika. — Toshkent: Fan, 2010.
10. Kant. Sof aql tanqidi. — Moskva: Mysl, 2006.
11. F. Bekon. Novum Organum. — Moskva: Nauka, 2004.
12. R. Dekart. Metod haqida mulohazalar. — Toshkent: Fan, 2012.
13. G. Gegel. Mantiq fani. — Toshkent: Fan, 2015.
14. M.A.Ahmedova. Falsafa. O‘zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti. Toshkent 2006.